

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Pedagogika va psixologiya fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Kriptotahlil fani bo'yicha elektron o'quv qo'llanma yaratish 	Tadqiqotning shakli: Amaliy. Ilmiy-tadqiqot natijalari: - Respublika va ilg'or xorijiy davlatlarning oliy ta'lim muassasalarida olib boriluvchi kriptografiya sohasiga oid o'quv dasturlari tahlili qilinadi; - uslubiy ishlanmalarga qo'yiluvchi talablar asosida kriptografiyaning asosiy masalalari va instrumentlarini (oliy ta'lim muassasalarida kriptografiya sohasidagi o'qitiladigan o'quv dasturlariga muvofiq) mujassam etuvchi elektron o'quv qo'llanmaning tarkibiy mazmuni va undagi materiallarni (matn, grafika, jadval, animatsiya, audio, video, trenajer, virtual laboratoriya) multimedia vositalari bilan taqdim etilishi, interaktiv imkoniyatlari, bilim, ko'nikma va malakani baholash funksiyalariga talablar shakllantiriladi; - veb texnologiyalar asosida turli platformalarni qo'llab quvvatlovchi davlat tilida elektron o'quv qo'llanma yaratiladi. Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligida sinovlardan o'tkaziladi. Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi. Izoh: Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Fanlar akademiyasi, Raqamli texnologiyalar vazirligi yoki Davlat xavfsizlik xizmatining qo'llab-quvvatlash xati mavjud bo'lganida qabul qilinadi.